

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLER VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOiy ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

OBLIGATIONS ARISING FROM UNJUST ENRICHMENT

Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich

Independent Researcher at the Academy of Fair Justice under the Supreme Council of Judges,
Judge of the Yangiqorgon Interdistrict Court for Civil Cases

E-mail: ikramovjustice87@gmail.com

Orcid: <http://orcid.org/0009-0001-6103-1164>

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the concept of unjust enrichment and its legal consequences. In particular, it examines the legal nature of obligations arising from unjust enrichment in civil law, their essence, and mechanisms of enforcement. Furthermore, a comparative study with foreign legal practices is conducted, and scientific-practical recommendations are offered for improving national legislation.

Keywords: unjust enrichment, obligation, civil law, damage, compensation, judicial practice, legal mechanism.

ASOSSIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR

Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich

Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi

Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,

Fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiqo'rg'on tumanlararo sudi sudyasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada asossiz boyish tushunchasi va uning huquqiy oqibatlari atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, fuqarolik huquqida asossiz boyish natijasida vujudga keladigan majburiyatlarning huquqiy tabiati, ularning mohiyati hamda ijro etish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy huquqiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: asossiz boyish, majburiyat, fuqarolik huquqi, zarar, qoplash, sud amaliyoti, huquqiy mexanizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N64>

Kirish. Fuqarolik huquqida asossiz orttirilgan boylikni qaytarish muammolari alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasiga ko'ra, "Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas. Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart [1].

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin", – deb qayd etilgan.

"Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning fuqarolik huquqiy munosabatlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi va subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning fuqarolik-huquqiy vositasi va usuli sifatida shakllanishi ham

ko'plab fuqarolik huquqiy institutlar (shartnomalar, mulk huquqi, dilektlar) kabi uzoq tarixiy o'tmishga borib taqaladi. Insoniyat tarixining dastlabki davrlaridayoq o'zgaga tegishli narsani asossiz qo'lga kiritish yoki ushlab qolish og'ir gunohlardan biri sifatida qarab kelingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qadimgi Rim huquqi boshqa huquq manbalari va huquqiy tizimlar hamda odat huquqlaridan farqli ravishda birinchilardan bo'lib, majburiyatlarni shartnomali va shartnomadan tashqari turlarga bo'lish bilan birga, shartnomadan tashqari majburiyatlarni zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga va asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga bo'ladi.

I.B. Noviskiyning fikricha, bir shaxsning mol-mulkiga ikkinchi shaxsga tegishli mol-mulkning muayyan bir qismi (pul summolari, ashyolar, talab qilish huquqi va shu kabilar) qo'shilishi yoxud bir shaxsning mol-mulkida boshqa shaxsning mol-mulkiga topshirilishi kerak bo'lgan muayyan qismning saqlanib qolishini bir mol-mulk ikkinchisining hisobiga boyishi, deb nomlash qabul qilingan.

Bunda asossiz orttirilgan boylikni talab qilib olish manfaatdor shaxsga kondiksiyaviy, *condictio* – deb nomlangan da'voni qilish imkoniyatini yaratgan.

Kondiksiyaviy da'vo talabi, Rim huquqi davridanoq ma'lum bo'lib, "kimdadir asossiz ravishda paydo bo'lgan begona mulk qaytarilishi kerak" degan tamoyilga asoslangan holda, shaxsning buzilgan huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha vosita sifatida ishlatilib kelingan bo'lib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu shartnomadan tashqari majburiyatlar turini o'rganishga kirishar ekanmiz, uning ijtimoiy adolatni tiklashga qaratilganligini qayd etish lozim.

Muhokama va natijalar. Huquq nazariyasida huquq normalari bilan axloq normalarining o'zaro bog'liqligi nazarda tutilar ekan. Huquq – o'z mohiyatiga ko'ra adolat prinsipini o'z ichiga oladi va aks ettiradi. Aynan shunday g'oyalarni to'liq aks ettiradigan ayrim huquqiy institutlar mavjud. Hali qadimgi Rimdayoq quyidagi qoida qonun darajasida mustahkamlangan edi: "Kimnidir qo'lida asossiz ravishda paydo bo'lgan boshqa birovning mol-mulki qaytarilishi kerak".

Bunday majburiyat shaxs tomonidan huquqiy asossiz ravishda olingan yoki saqlab qolingan mol-mulkni qaytarishga qaratilgan, ya'ni bu holat adolatsiz boyishni oldini olgan holda, mulkdorning huquqlarini tiklashga qaratilganligini anglatadi [2].

Tadqiq etilayotgan mavzuda asossiz boyish natijasida vujudga keladigan majburiyatlarning mohiyatini aniqlash, shuningdek, amaliyotda ushbu normalarning qanday tarzda amalga oshirilayotganini o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur bo'ladi:

1. Asossiz boyishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning asosiy belgilarini aniqlash va ularni shartnomadan tashqari delikt majburiyatlaridan farqlash;
2. Asossiz boyish turlarini o'rganish;
3. Majburiyatlarning mazmunini aniqlash, ya'ni: asossiz boyishni qaytarish to'g'risidagi talablarni qanday bajarish kerakligi hamda qanday hollarda va qanday hisob-kitoblar amalga oshirilishi lozimligini tahlil qilish;
4. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan boshqa turdagi majburiyatlar bilan taqqoslash.

Asossiz boyish yoki boshqa shaxsning mol-mulkini asrash natijasida yuzaga keladigan majburiyat tuzilmasi quyidagi ikki elementdan iborat:

1. Bir shaxs boshqa shaxs hisobiga mol-mulk orttirgan yoki uni saqlab qolganda;
2. Mazkur mol-mulk huquqiy asoslarsiz orttirilgan yoki saqlab qolinganda [2].

Ye.A.Suxanovning fikriga ko'ra, mol-mulkning asossiz ravishda orttirilishi (yoki saqlab qolinishi)ga olib keladigan omillar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan:

jabrlanuvchining harakatlari (masalan, qarz miqdorini ikki marta to'lash, oldin to'langan tovar uchun yana qaytadan pul to'lash);

uchinchi shaxslarning harakatlari (masalan, tovarni yuk xatida ko'rsatilgan shaxsga emas, boshqa shaxsga xato bilan yetkazib berish);

mol-mulkni orttirgan shaxsning harakatlari (masalan, familiyasi bir xil bo'lgan shaxsga yuborilgan pochta pul o'tkazmasini qabul qilish) [4].

Bunday majburiyatlarni vujudga keltiradigan harakatlar ham huquqiy, ham huquqqa zid bo'lishi mumkin. Masalan, agar vakil ishonch bildiruvchi topshirig'ini lozim darajada o'rganmagan holda, ishonch bildiruvchining qarzini noto'g'ri shaxsga bersa — bu huquqqa zid harakat hisoblanadi. Ammo agar ishonch bildiruvchining o'zi shartnomada noto'g'ri shaxsni ko'rsatgan bo'lsa, vakilning harakatlari huquqiy to'g'ri bo'ladi.

Asossiz boyish ba'zan boshqa shaxs manfaatlarida qilingan harakatlar natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Asossiz boyish majburiyati yuzaga kelishi uchun, mol-mulk huquqiy asoslarsiz orttirilgan yoki saqlab qolingan bo'lishi shart. Agar bunday asos mavjud bo'lmasa — mol-mulk asossiz orttirilgan yoki saqlab qolingan deb hisoblanadi [3].

Agar qandaydir huquqiy norma bunday orttirish yoki saqlashni qo'llab-quvvatlamasa, huquqiy asos yo'q deb baholanadi. Masalan, fermer xo'jaligi ishchilarni yollab, ularni hosil yig'ishga jalb qilsa, lekin ular bir qism hosilni yaqindagi boshqa xo'jalikdan yig'ib, asosiy xo'jalikning hosiliga qo'shib yuborsa — bu holat asossiz ravishda mol-mulk orttirish deb hisoblanadi.

Asossiz olish (yoki saqlash) holati, agar keyinchalik huquqiy asoslar bekor qilinsa ham yuzaga kelishi mumkin. Huquqiy asoslar yo'qolishi deganda, oldingi huquqiy omillar, ya'ni mulkni asosli ravishda olish yoki saqlashga imkon beradigan sabablar, yo'qolishi tushuniladi. Bu holat, masalan, qonunning orqa ta'siri bilan yangi huquqiy normalarning qabul qilinishi natijasida sodir bo'lishi mumkin, bu esa oldin bajarilgan ishlar uchun asoslarni yo'q qiladi. Boshqa holatlarda esa yuqori instansiyalar tomonidan sud qarorlarini bekor qilish yoki notariuslarning ijro yozuvlarini sud tomonidan haqiqatan ham noqonuniy deb topilishi asosida mulkni tortish amallari bekor qilinishi mumkin.

Huquqiy maqsadlar yo'qolganda, mulkni berish uchun asoslar ham yo'qoladi. Masalan, ijara beruvchi ijaraga bergan buyum ijara oluvchidan o'g'irlansa, ijara oluvchi ushbu buyumning qiymatini ijara beruvchiga qoplagan bo'lsa, lekin keyinchalik buyum topilib, ijara beruvchiga qaytarilsa, to'lov uchun asos bekor bo'ladi. Shuningdek, shartnomani haqiqatan ham bekor qilish holatida mulkni berish uchun huquqiy asos yo'qoladi [3].

Agar merosxo'r vasiyatnoma asosida merosni olsa va pullarni sarflasa yoki merosga kirish tartibida olgan mulkdan foydalansa, lekin keyinchalik vasiyatnoma noto'g'ri deb topilsa va merosning haqiqiy merosxo'rlari huquqlari tiklansa, boshlang'ichdagi merosxo'r noto'g'ri asosda mulk olgan bo'ladi, ya'ni asossiz boyish hisoblanadi.

Asossiz boyishdan kelib chiqadigan majburiyatlar turlari fuqarolik huquqida asossiz boyish ikki usul bilan yuzaga keladi: asossiz mulk olish va asossiz mulkni saqlash. Shu asosda,

asossiz boyishdan kelib chiqqan ikki tur majburiyatlar mavjud: asossiz mulk olishdan kelib chiqqan majburiyatlar va asossiz mulkni saqlashdan kelib chiqqan majburiyatlar [2].

Asossiz mulk olish va asossiz mulkni saqlash tushunchalarini aniq farqlash zarur, bu ularning moddiy sohadagi o'zgarishlari bilan bog'liq. Asossiz mulk olishda moddiy sohada o'zgarishlar mavjud bo'ladi, garchi bu o'zgarishlar bo'lmasligi kerak edi. Asossiz mulkni saqlashda esa o'zgarishlar yo'q, ammo ular bo'lishi kerak edi. Shu sababli, asossiz mulk olishda talablar ilgari mavjud bo'lgan holatni yoki unga yaqin holatni tiklashga qaratilsa, asossiz mulkni saqlashda talablar mavjud holatni boshlang'ich holatga qaytarishga qaratilgan bo'ladi.

Asossiz mulkni saqlashning bir shakli – mulkni oluvchida uning zimmasiga yuklangan majburiyat tufayli zarar ko'rgan tomonning mulki hisobiga yuzaga kelgan mulkiy foydadir. Masalan, pul to'lovini javobgar tomon emas, balki boshqa shaxs amalga oshirsa yoki mulk javobgarga tegishli emas, balki boshqa shaxsniki bo'lsa ham uni yetkazib berish majburiyati bajarilsa, agar shaxs o'z vaqtida boshqa shaxs mulkidan foydalanib, uning mulk egasi bo'lishni xohlamasa, bu mulkni saqlash shakli hisoblanadi [4].

Asossiz boyish oqibatidagi majburiyatining mazmuni shundan iboratki, bu mulk oluvchi yoki saqlovchida paydo bo'lgan asossiz olingan yoki saqlangan mulkni qaytarish majburiyati hamda zarar ko'rgan tomonda bunday mulkni qaytarishni talab qilish huquqining paydo bo'lishida ifodalanadi.

Shuningdek, mulk asossiz ravishda olingan yoki saqlangani ma'lum bo'lgan vaqtda shaxs majburiy ravishda bu mulkni darhol qaytarishi kerak. Agar mulk o'z vaqtida qaytarilmasa, u holda qo'shimcha majburiyatlar yuklanadi.

Asosan, asossiz boyish sifatida topilgan mulk haqiqiy holatda qaytarilishi kerak. Agar mulk yetishmaslik yoki buzilish holatida bo'lsa, uni olgan shaxs zarar ko'rgan tomon oldida javobgar bo'ladi. Agar mulkni olgan shaxs asossiz boyishdan xabarsiz bo'lsa, javobgarlik faqatgina mulkni qasddan buzgan yoki qo'pol ehtiyotsizlik holatida yuzaga keladi. Keyinchalik, mulkni olgan shaxs faqat zarar yetkazganlikda emas, balki ehtiyotsizlik holatida ham, shuningdek tasodifiy yetishmaslik yoki mulkning buzilishi uchun ham javobgar bo'ladi.

Delikt va kondikson da'volarni ayb mavjud yoki mavjud emasligiga qarab emas, balki huquqbuzarning mulkiy manfaati bor yoki yo'qligiga qarab farqlash mantiqliroq. Ma'lumki, mulkiy zarar — bu huquq himoya qiladigan mol-mulk qiymatining yo'qolishi yoki kamayishi hisoblanadi [2].

Biroq, mulkiy ne'matlarni yo'q qilish va kamaytirish shakllari turlicha bo'ladi. Agar bu harakatlar mol-mulkni yo'q qilish, buzish, hayot yoki sog'liqqa zarar yetkazish shaklida sodir etilsa, bunday holda huquqbuzar jabrlanuvchining mulkiy ne'matlarini kamaytirar ekan, undan foyda ko'rmaydi, balki faqat zarar yetkazadi. Agar mulkiy ne'matning kamayishi o'g'irlik yoki boshqa asossiz ravishda mulkni egallash orqali yuz bersa, bunda huquqbuzar jabrlanuvchiga zarar yetkazish bilan birga, asossiz ravishda boyib ketadi.

Xulosa. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi zamonda barcha sohalarda bo'lgani kabi asossiz boylik orttirish va bu boylikni qaytarish ham dolzarb hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud bo'lib, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida o'zgarishlar yuzaga kelayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish asosida qonunchilikni jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga mos ravishda takomillashtirilishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023.
2. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations, Special Issue – 11 (2023) / ISSN 2181-1415, Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan yondashuvlar tahlili, A.Alimov, 27-bet, 2023-y.
3. Флейшиц Е.А. Обязательства из причинения вреда и неосновательного обогащения. – С. 20-21.
4. Суханов Е. А. Российское гражданское право. В 2 томах. Обязательственное право: Учебник. (том 2). Статут. 2011.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).